Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

TARIXIY GASTRONOMIK MEROSDAN ZAMONAVIY NOMODDIY MADANIY MEROS SIYOSATIGACHA: O‘ZBEKISTONDA UNUTILAYOTGAN TAOMLARNI ANIQLASH, HUJJATLASHTIRISH VA MUHOFAZA QILISH MUAMMOLARI

Madiyor Mamanazarovich Turdiyev*
Alfraganus University katta o‘qituvchisi
✉ m_turdiyev@afu.uz

ANNOTATSIYA

Maqolada tarixiy manbalarda qayd etilgan gastronomik obyektlarni nomoddiy madaniy meros sifatida aniqlash, hujjatlashtirish va muhofaza qilish muammosi O‘zbekistonning 1991–2025-yillardagi siyosati kontekstida tadqiq etilgan. Muammo shundaki, inventarizatsiya faol elementlarga yo‘naltirilgan, amaliyotdan chiqayotgan taomlarni meros maqomiga o‘tkazish mezonlari esa yo‘q. Manbashunoslik, tarixiy-qiyosiy va etnologik metodlar hamda normativ hujjatlar kontent-tahlili asosida “unutilayotgan taom” tushunchasining operatsional ta’rifi, to‘rt pog‘onali mansublik shkalasi, o‘n ikki mezonli matritsa, meros qiymati (MQI) va muhofaza ustuvorligi (MUI) indekslariga tayangan qaror modeli hamda o‘n bosqichli identifikatsiya algoritmi taklif etilgan. To‘rt namunadagi aprobatsiya modelning tafovutlash qobiliyatini ko‘rsatgan. Normativ tahlil 2008 va 2024-yillarni hal qiluvchi chegaralar sifatida asoslab, yo‘qolgan namunalarni qayta tiklash vazifasining metodologik ta’minoti yo‘qligini ko‘rsatgan. Natijalar gastronomik meros inventarini shakllantirish va tarixiy taomlarni jamoa ishtirokida qayta tiklashda qo‘llanishi mumkin.

Kalit so‘zlar

nomoddiy madaniy meros, gastronomik meros, unutilayotgan taom, tarixiy manbashunoslik, inventarizatsiya, davlat madaniy siyosati, gastronomik turizm.

DOI: 10.5281/zenodo.23281587

1. KIRISH

Nomoddiy madaniy meros nuqtayi nazaridan tarixiy taom retseptga teng emas: u mahsulotni tanlash va saqlash bilimini, mavsumiy xo‘jalik tajribasini, marosim tartibini, ijtimoiy xotira va hududiy o‘zlik belgilarini jamlaydi [12, B. 2–3], ya’ni nomoddiy bilim tashuvchisidir. Urbanizatsiya va oziq-ovqat ishlab chiqarishining standartlashuvi sharoitida bunday taomlarning bir qismi amaliyotdan chiqib, ular bilan birga ana shu bilim ham yo‘qolmoqda.

Madaniy merosni asrab-avaylash Konstitutsiyaning 61-moddasida fuqaroning burchi, meros esa davlat muhofazasidagi qadriyat sifatida belgilangan, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida u Uchinchi Renessans poydevorining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Vazirlar Mahkamasining 2011-yildagi 47-son qarori milliy ro‘yxatlar tizimi, jumladan zudlik bilan muhofaza ostiga olinishi lozim bo‘lgan namunalar ro‘yxati va tarixiy-madaniy ekspertizani joriy etgan [3]. Biroq UNESCO ro‘yxatlaridagi O‘zbekistonga tegishli 18 ta elementdan (2025-yil holati) bevosita gastronomik xarakterdagisi bitta — palov madaniyati va an’analari (2016); iftor an’analari (2023) va Navro‘z esa oziq-ovqatni marosim orqali qamraydi [15].

Demak, muhofaza mexanizmi mavjud, ammo ilmiy muammo manbadagi qayd bilan meros maqomi o‘rtasidagi uzilishda namoyon bo‘ladi: tarixiy matnda uchragan har qanday taom meros elementi bo‘lavermaydi, amaliyotdan chiqqan obyekt esa ko‘rinadigan elementlarga yo‘naltirilgan inventarizatsiyadan chetda qoladi.

Mavzu tarixiy manbalardagi etnografik ma’lumotlarni o‘rganish va nomoddiy meros siyosatining huquqiy-institutsional tahlili tutashgan nuqtada turadi. Tadqiqot obyekti — tarixiy manbalarda qayd etilgan gastronomik amaliyotlar; predmeti — ularni meros elementi sifatida identifikatsiya qilish, baholash va muhofaza siyosatiga integratsiya qilish mezonlari; maqsadi — obyektni manbadan inventarga o‘tkazishning takrorlanuvchan ilmiy apparatini yaratish.

Tadqiqot savollari: (1) tarixiy gastronomik obyektning meros maqomi qanday shartlarda tan olinadi? (2) tashqi kuzatuvchi pozitsiyasidan kelib chiqadigan cheklovlar qanday verifikatsiyani taqozo etadi? (3) yo‘nalishi qarama-qarshi mezonlarni bitta tizimda birlashtirish qachon asosli? (4) 1991–2025-yillardagi siyosatda gastronomik meros qanday o‘rin egallagan va model inventarizatsiya mexanizmiga qayerda ulanadi?

Gipoteza: meros maqomi manbadagi qayd bilan berilgan birlamchi xususiyat emas, balki manbaviy verifikatsiya, etnografik kontekstga bog‘lash va jonlilikni baholash natijasida aniqlanadigan hosila xususiyatdir; identifikatsiya o‘lchovli mezonlarga keltirilsa, unutilayotgan obyektlar taqdiri shaxsiy tashabbusga emas, takrorlanuvchan protsedura natijasiga tayanadi. Shunday qilib, maqolada tarixiy taom qanday shartlarda meros sifatida tan olinishi, uning muhofaza ustuvorligi qanday aniqlanishi va natija davlat ro‘yxatlariga qanday ulanishi masalasi hal etiladi.

2. ADABIYOTLAR TAHLILI

Nomoddiy meros nazariyasidagi asosiy burilish madaniy ifodalarni obyekt emas, jarayon sifatida ko‘rishga o‘tishdir [14, B. 3]. 2003-yilgi konvensiya muhofazani identifikatsiya, hujjatlashtirish, tadqiq etish, uzatish va jonlantirishni qamrovchi chora-tadbirlar majmui deb ta’riflaydi [1, 2-modda]: identifikatsiya va hujjatlashtirishsiz na muhofaza, na qayta tiklash mumkin. Ayni paytda konvensiya oziq-ovqat madaniyatini alohida soha sifatida ajratmaydi — gastronomik meros unga ijtimoiy amaliyotlar, marosim va bayramlar hamda tabiatga oid bilimlar orqali bilvosita kiradi. UNESCOning axloqiy tamoyillari merosning dinamik tabiatini hurmat qilishni, autentiklik muhofazaga to‘siq bo‘lmasligini va meros qiymatini jamoaning o‘zi belgilashini talab qiladi [5, 6-, 8-tamoyillar].

Oziq-ovqatning meros sifatidagi talqinida M. Di Giovine va R. Brulotte taom guruh identitetini ifodalay boshlaganda merosga aylanishini ko‘rsatib, uni odamlar va joylar xotirasini saqlovchi “yeyiladigan xronotop” deb ataydi, taomni etnik o‘zlikning oson taniladigan belgisi sifatida baholaydi [12, B. 2–5] hamda gastronomik elementlarning UNESCO ro‘yxatlari va milliy inventarlarga kirib kelishini tahlil qiladi [12, B. 11–14]. Bundan ikki xulosa chiqadi: gastronomik identitet matn va institutlar vositasida quriladi; yozma qayd esa amaliyotning o‘zi emas, uning tanlangan tasviridir.

Meroslashtirishning tanqidiy tahlili “an’ananing ixtiro qilinishi” konsepsiyasiga tayanadi: qadimiy deb taqdim etiladigan ko‘plab an’analar nisbatan yangi bo‘lib, o‘tmish bilan davomiyligi ko‘pincha sun’iy quriladi [13, B. 1–2]. L. Smith ta’riflagan “vakolatli meros diskursi” ekspertlar va davlat institutlari tomonidan shakllantirilib, monumentallik, vaqt chuqurligi va millat qurilishiga xizmat qiluvchi shakllarni ustun qo‘yadi [14, B. 11]. Binobarin, institutsional tan olish betaraf emas: ro‘yxatga nima kirishi ham, nima chetda qolishi ham tanlov natijasidir.

O‘zbekistonning nomoddiy meros siyosatini o‘rganishda asosiy manba normativ hujjatlardir: qonunga nomoddiy meros ta’rifi 2009-yilda O‘RQ-228-son qonun bilan kiritilgan, 47-son qaror ro‘yxatlar va ekspertiza tartibini belgilagan [3], 2023–2024-yillardagi hujjatlar ixtisoslashgan institut va qayta tiklash vazifasini [2; 4], 2025-yilgi 256-son qaror esa ro‘yxatga kiritish reglamentini mustahkamlagan. Biroq qonundagi ta’rif ham, 47-son qaror va 2025-yilgi reglamentdagi sohalar ro‘yxati ham oziq-ovqat amaliyotini alohida ko‘rsatmaydi [3].

Tarixiy manbalar — Sima Tsyan [6, 123-bob], al-Muqaddasiy [7], Koshg‘ariy [8], Klavixo [9], Bobur [10, 899-yil voqealari] va Vamberi [11] asarlari — taomning mavjudligini tasdiqlaydi, ammo uning ijtimoiy funksiyasi, uzatilishi va bugungi davomiyligi haqida kam ma’lumot beradi, shu sababli etnografik tekshiruvni talab qiladi.

Ko‘rib chiqilgan adabiyotlarda uch bo‘shliq ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, nazariy ishlar meroslashtirishning mazmuni va xavflarini tushuntiradi, ammo amaliyotdan chiqqan obyektni meros maqomiga o‘tkazishning o‘lchovli mezonlarini bermaydi. Ikkinchidan, gastronomik meros va turizm tadqiqot-

larida e’tibor faol amaliyotga qaratiladi: masalan, M. Di Giovine va R. Brulotte meros oshxonasining turistik tajribaga aylanishini tahlil qiladi [12, B. 18–20]. Uchinchidan, milliy hujjatlar qayta tiklash vazifasini qo‘ygan, lekin qaysi obyekt “yo‘qolgan”, qaysisi “unutilayotgan” ekanini aniqlash tartibini bermaydi; xavf ostidagi tillar uchun UNESCO “Dunyoning xavf ostidagi tillari atlasi”da hayotiylik shkalasini ishlab chiqqan, gastronomik obyektlar uchun esa ko‘rib chiqilgan manbalarda bunday vosita uchramaydi. Maqolaning ilmiy yangiligi aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishdadir.

3. METODOLOGIYA

Adabiyotlarda aniqlangan bo‘shliqni to‘ldirish uchun tadqiqot avvalo tushunchaviy apparatni aniqlashtiradi. “Unutilgan taom” iborasi o‘z-o‘zidan ilmiy termin bo‘la olmaydi: obyekt manbada qayd etilgan bo‘lsa-da keng amalda bo‘lmagan, nomi o‘zgargan, boshqa taomga singib ketgan yoki faqat ayrim hududda saqlangan bo‘lishi mumkin. Shu bois olti toifa farqlandi: *tarixiy-gastronomik obyekt* (manbaviy, neytral kategoriya); *tirik gastronomik meros* (muntazam amal qiluvchi va uzatilayotgan); *zaiflashayotgan meros* (tashuvchilar doirasi torayayotgan); *unutilayotgan taom* (amaliyotdan chiqqan, biroq jonli xotira tashuvchilari saqlangan); *yo‘qolgan taom* (faqat manba qaydi saqlangan); *qayta tiklangan meros* (manba va xotira asosida amaliyotga qaytarilgan obyekt).

Tadqiqot tarixiylik va xolislik tamoyillariga tayanadi. Manbashunoslik va tekstologik tahlil qaydning asl holatini, tarixiy-qiyosiy metod manbalar farqini, etnologik yondashuv ijtimoiy funksiyani aniqlashga xizmat qildi; normativ hujjatlar qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasida (lex.uz) tahrirlar tarixi bilan kontent-tahlil qilindi; model keys-stadi bilan sinaldi; yozma manba, og‘zaki xotira va etnografik material triangulyatsiya qilindi.

Manba korpusi besh tipdan iborat: leksikografik, geografik-tavsifiy, sayohatnoma va elchilik kundaliklari, mahalliy tarixiy-avtobiografik asarlar hamda XIX–XX asr boshlaridagi sharqshunoslik kuzatuvlari [6–11]. Ishonchlilik kuzatuvning bevositaligi, voqea bilan matn yozilishi orasidagi vaqt va muallifning madaniy kompetensiyasi — kuzatilayotgan jamiyat tili va turmushini tushunish darajasi bo‘yicha baholandi. Tanlanma olti bosqichda shakllantirildi: obyektlarni ajratish; takroriy va tasdiqlanmagan ma’lumotlarni chiqarish; hududiy-xronologik verifikatsiya; bugungi mavjudlikni aniqlash; ball berish; qaror zonasiga taqsimlash.

Baholashda 0–10 emas, 0–5 shkalasi qo‘llandi: darajalar sonini oshirish ekspertlararo kelishuvni qiyinlashtirib, soxta aniqlik taassurotini yaratishi mumkin, 0–5 shkalasi esa har bir darajaga og‘zaki deskriptor biriktirishga imkon beradi. Mezonlar yagona yig‘indiga keltirilmadi: tarixiylik yoki identitet mezonida yuqori ball obyektning qadr-qimmatini, jonlilikning pasayishi mezonida esa yo‘qolish darajasini bildiradi. Shu sababli ular ikki mustaqil indeksga ajratildi: meros qiymati indeksi (MQI, 1–8-mezonlar, maksimal 40 ball) va muhofaza ustuvorligi indeksi (MUI, 9–12-mezonlar, maksimal 20 ball). Tadqiqot to‘liq inventar yaratmaydi, texnologiyani faqat autentiklik indikatori sifatida ko‘radi va etnik mansublikni emas, mansublik darajasini belgilaydi.

4. NATIJALAR

4.1. Manba korpusi va mansublik pog‘onalari. Manbadagi qayd milliy meros maqomi uchun yetarli bo‘lmagani sababli to‘rt pog‘onali mansublik shkalasi ishlab chiqildi: I — manbada qayd etilgan (faqat matn dalili); II — Markaziy Osiyo madaniy arealiga xos (mintaqaviy tarqalish tasdiqlangan); III — o‘zbek gastronomik merosi bilan bog‘lash mumkin (mahalliy davomiylik izlari mavjud); IV — bevosita o‘zbek meros elementi sifatida identifikatsiya qilinishi mumkin (uzluksiz amaliyot va jamoa tan olishi tasdiqlangan). Korpusning manbashunoslik tavsifi 1-jadvalda berilgan.

1-jadval. Tarixiy manbalarda qayd etilgan gastronomik obyektlar (manbashunoslik tavsifi)

Muallif, asar, davr	Kuzatuv pozitsiyasi	Hudud	Gastronomik qayd	Pog‘ona	Bugungi holati	Ishonchlilik
Sima Tsyan, “Shiszi”, mil. av. II–I asr [6]	Tashqi, bilvosita (Chjan Tsyan axboroti)	Dayuan-Davan (Farg‘ona)	Uzumdan ichimlik tayyorlash va uni uzoq saqlash amaliyoti	I–II	Texnologiya uzilgan	O‘rta–yuqori

Muallif, asar, davr	Kuzatuv pozitsiyasi	Hudud	Gastronomik qayd	Pog‘ona	Bugungi holati	Ishonch-lilik
Al-Muqaddasiy, “Ahsan at-taqosim”, X asr [7]	Tashqi, tizimli tavsif (geograf)	Movarounnahr, Xuroson	Hududiy oziq-ovqat va eksport nomenklaturasi	II	Qisman saqlangan	Yuqori
Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu lug‘otit turk”, XI asr [8]	Ichki, bevosita (leksikograf, til egasi)	Turkiy tillar areali, Movaroun-nahr	Tutmoch — xamir asosidagi suyuq taom; leksik qayd	III	Nomi saqlangan, amaliyoti marginal	Yuqori
R. G. de Klavixo, elchilik kundaligi, XV asr boshi [9]	Tashqi, bevosita (elchi)	Samarqand	Saroy ziyofati marosimi; ot go‘shti, biya suti ichimligi	II	Keskin qisqargan	Yuqori
Z. M. Bobur, “Boburnoma”, XVI asr [10]	Ichki, bevosita (mahalliy hukmdor)	Farg‘ona, Movaroun-nahr	Meva-sabzavot nomenklaturasi, mahalliy navlar	IV	Asosan saqlangan	Yuqori
A. Vamberi, sayohatnoma, XIX asr [11]	Tashqi, bevosita (sayyoh)	Xiva, Buxoro, Samarqand	Kundalik ovqatlanish, don asosidagi ichimlik	II–III	Amaliyotdan chiqqan	O‘rta

Jadvaldan ko‘rinadiki, kuzatuv pozitsiyasi qayd turini belgilaydi. Tashqi kuzatuvchilar — Sima Tsyan, Klavixo va darvesh qiyofasidagi Vamberi — o‘zlari uchun g‘ayrioddiy holatlarni, ayniqsa ziyofat va mehmondo‘stlik marosimlarini qayd etgan. Ichki kuzatuvchilar — Koshg‘ariy va Bobur — taom yoki mahsulotni nomi, navi va hududi bilan bergani uchun ularning ma’lumoti bugungi identifikatsiyaga qulayroq; al-Muqaddasiyning tizimli tavsifi esa mintaqaviy tarqalishni tasdiqlaydi. Boshqacha aytganda, pog‘onani manbaning nufuzi emas, qaydning tabiati va keyingi davomiylik izlari belgilaydi.

4.2. Baholash matritsasi. O‘n ikki mezonli matritsa (2-jadval) ikki blokka bo‘linadi, to‘qqizinchi mezon esa teskari shkalada o‘lchanadi: jonlilik qanchalik past bo‘lsa, ball shunchalik yuqori. Bu yondashuv UNESCOning xavf ostidagi tillar atlasidagi hayotiylik darajalari mantiqiga tayanadi.


2-jadval. Tarixiy gastronomik obyektni identifikatsiya qilish va baholash mezonlari

№	Mezon	Asosiy indikator	Ball	Verifikatsiya (tasdiq) manbasi
MQI bloki — meros qiymati indeksi (maksimal 40 ball)				
1	Tarixiylik	Obyektning yozma manbada qayd etilgani va qaydning eng erta sanasi	0–5	Birlamchi tarixiy manba
2	Manbaviy tasdiqlanganlik	Mustaqil manbalar soni va ularning tipologik xilma-xilligi	0–5	Manbashunoslik va tekstologik tahlil
3	Hududiy lokalizatsiya	Muayyan voha, viloyat yoki etnomadaniy makon bilan bog‘lanishi	0–5	Manba qaydi va etnografik material
4	Texnologik autentiklik	O‘ziga xos ingredient, texnologik rejim yoki asbob-uskunaning mavjudligi	0–5	Qiyosiy-texnologik tahlil
5	Nomoddiy bilim komponenti	Formallashmagan, ustoz-shogird yo‘li bilan o‘zlashtiriladigan ko‘nikma ulushi	0–5	Dala tadqiqoti, intervyu
6	Avlodlararo uzatilish	Bilim va ko‘nikmaning kamida uch avlod davomida uzatilgani	0–5	Og‘zaki tarix materiallari
7	Ijtimoiy-marosimiy funksiya	Marosim, bayram, mehmondo‘stlik yoki jamoaviy amaliyotdagi belgilangan o‘rni	0–5	Etnologik kuzatuv va manba
8	Identitet bilan bog‘liqlik	Mahalliy yoki milliy o‘zlikni ifodalashdagi ahamiyati	0–5	Etnologik va sotsiologik ma’lumot
MUI bloki — muhofaza ustuvorligi indeksi (maksimal 20 ball)				
9	Jonlilikning pasayishi (teskari shkala)	Faol → zaiflashgan → marginal → faqat nom saqlangan → amaliyotdan chiqqan	0–5	Dala kuzatuvi, umumiy ovqatlanish ma’lumotlari


№	Mezon	Asosiy indikator	Ball	Verifikatsiya (tasdiq) manbasi
10	Yo‘qolish xavfi	Tashuvchilar sonining qisqarish sur’ati va hududiy torayish dinamikasi	0–5	Monitoring va jamoa so‘rovlari
11	Qayta tiklash imkoniyati	Manba va jonli xotira bazasining asoslangan rekonstruksiya uchun yetarliligi	0–5	Manba korpusi va og‘zaki tarix
12	Muhofaza salohiyati	Jamoa qiziqishi va amaldagi institutsional-huquqiy mexanizmning mavjudligi	0–5	Normativ hujjatlar, jamoa bilan ishlash

4.3. Qaror zonalari va model aprobatsiyasi. Ikki indeks kesishuvi to‘rt qaror zonasini hosil qiladi, ular 47-son qarordagi ro‘yxatlar tizimiga mos keladi [3] (1-rasm). Kalibratsiya namunasi — palov: yuqori MQI (37) va past MUI (6) uni IV zonaga joylashtiradi, bu elementning Reprezentativ ro‘yxatdagi maqomiga mos bo‘lib, modelning asosliligini tasdiqlaydi [15]. Qimiz ko‘p manbali tasdiqqa ega (MQI 31), biroq amaliyoti asosan cho‘l va sug‘orma dehqonchilik chegarasidagi hududlarda saqlangani MUIni oshiradi (15) — I zona. Tutmoch XI asr manbasida ishonchli qayd etilgan [8], ammo hududiy lokalizatsiyasi noaniq, marosimiy funksiyasi hujjatlashtirilmagan (MQI 18), yo‘qolish xavfi esa yuqori (MUI 16) — II zona, ya’ni qo‘shimcha manbaviy tadqiqot talab etiladi. Bo‘za amaliyotdan chiqqan, uning yo‘qolishi madaniy emas, ko‘proq normativ-ijtimoiy omillar bilan bog‘liq (MQI 16, MUI 8) — III zona. To‘rt namunaning to‘rt xil zonaga tushishi modelning tafovutlash qobiliyatini ko‘rsatadi.

4.4. Identifikatsiya algoritmi. Matritsa o‘n bosqichli algoritmning yettinchi qadamidir (2-rasm). Uchinchi bosqichda tasdiqlanmagan obyekt o‘chirilmaydi, ilmiy arxivga o‘tkazilib, yangi manba topilganda qayta ko‘riladi; oxirgi bosqichda monitoring natijalari baholashga qaytariladi, ya’ni model davriy qayta baholanadigan tizimdir.



1-rasm. Meros qiymati va muhofaza ustuvorligi indekslari asosidagi qaror modeli



2-rasm. Tarixiy gastronomik merosni identifikatsiya qilish va muhofazaga integratsiya algoritmi

4.5. Davrlashtirishning tuzatilgan varianti. Normativ hujjatlar tahlili dastlabki davrlashtirishga ikki tuzatish kiritdi. Birinchidan, chegara 2010-yil emas, 2008-yil: ratifikatsiya to‘g‘risidagi qonun (O‘RQ-122) 2007-yil 12-dekabrda qabul qilingan, UNESCO ma’lumotiga ko‘ra ratifikatsiya sanasi 2008-yil 29-yanvar [15]; shundan so‘ng qonunga nomoddiy meros ta’rifi kiritildi (2009, O‘RQ-228) va ro‘yxatlar tizimi yaratildi (2011) [3]. Ikkinchidan, hal qiluvchi chegara 2022-yil emas, 2024-yil: yo‘qolgan noyob namunalarni qayta tiklash vazifasi PQ-405 qarorida (2023-yil 25-dekabr) qo‘yilgan [2], 368-son qaror (2024-yil 29-iyun) esa institut faoliyatini tashkil etib, bu vazifani etnofolklor laboratoriyasi vazifalari qatorida mustahkamladi va ro‘yxat yuritishni institutga yukladi [4]. Shu tariqa vazifa aynan 2024-yilda ijrochi institut va ro‘yxatlar mexanizmi bilan birlashdi (3-jadval).

3-jadval. 1991–2025-yillardagi davlat siyosati bosqichlari va gastronomik segmentning holati

Bosqich	Chegara	Hal qiluvchi hujjat yoki voqea	Gastronomik segmentning holati
I. Milliy qayta anglash	1991–2001	Ixtisoslashgan nomoddiy meros vositasi yo‘q; Boysun madaniy makonining e’tirof etilishi (2001) asosan tashqi tashabbus	Siyosat obyekti sifatida mavjud emas
II. Umumiy meros huquqining shakllanishi	2002–2007	VM ning 2002-yil 29-iyuldagi 269-son qarori: meros umumiy tartibga solinadi, nomoddiy segment ajratilmaydi	Bilvosita, marosim tarkibiy qismi sifatida
III. Konvensiyaviy integratsiya	2008–2016	Konvensiya ratifikatsiyasi (2008) [15]; qonunga nomoddiy meros ta’rifi kiritilishi (O‘RQ-228, 2009); VM ning 47-son qarori (2011) [3] — ro‘yxatlar va ekspertiza; palov (2016) [15]	Bitta element orqali xalqaro vakillik; xavf ostidagi obyektlar aniqlanmagan
IV. Kengayish va ko‘rinuvchanlik	2017–2023	Xalqaro ro‘yxatlarda ishtirokning kengayishi [15]; PQ-4068 (2018) va VM ning 846-son qarori (2019) asosida moddiy meros milliy inventari	Asimmetriya: moddiy meros inventarizatsiya qilinadi, gastronomik segment inventardan tashqarida
V. Institutsional-raqamli bosqich	2024–2025	PQ-405 (2023-yil dekabr) [2] qo‘ygan “yo‘qolgan namunalarni qayta tiklash” vazifasi VM ning 368-son qarori (2024) [4] bilan institut faoliyatida mustahkamlangan; VM ning 256-son qarori (2025) — elektron xizmat reglamenti	Huquqiy vazifa qo‘yilgan, uni bajarish uchun metodologik ta’minot yo‘q

5. MUHOKAMA

Manbalar tahlilidan muhim metodologik xulosa kelib chiqadi: yozma manbada kundalik oziqlanish kam aks etgan, og‘zaki xotira esa kundalikni yaxshi saqlasa-da, uning xronologik chuqurligi odatda uch-to‘rt avloddan oshmaydi. Demak, ikki manba turi bir-birini almashtirmaydi, balki triangulyatsiya qilinishi lozim.

Autentiklikni o‘zgarmaslik emas, texnologik uzluksizlik sifatida tushunish maqsadga muvofiq: muhimi — o‘zgarish uzatilish zanjiri ichida yuz berganmi yoki zanjir uzilgach tashqaridan kiritilganmi. Bu yondashuv merosning dinamik tabiatini tan oluvchi UNESCO tamoyiliga mos [5, 8-tamoyil] va asoslangan rekonstruksiyani gastronomik ixtirodan ajratadi: manba va jonli xotiraga tayanmagan “tiklangan tarixiy taom” ixtiro qilingan an’anaga aylanadi [13, B. 1–2] va meros maydonining ishonchliligini pasaytiradi. Muzeylashtirish ham xavfli: tirik amaliyotni eksponatga aylantirish muhofaza emas, konservatsiyadir.

Gastronomik turizm bu zanjirning tabiiy davomi bo‘la oladi, ammo faqat hujjatlashtirishdan keyin. An’anaviy taom mahalliy identitet va hududiy rivojlanish resursiga aylanishi mumkin [12, B. 8, 18]; biroq meros o‘tmishga murojaat qilib hozirgi zamonda quriladigan jarayon ekan [14, B. 3], turistik talab uning shaklini ham o‘zgartiradi: soddalashtirilgan turistik variant mahalliy variantlarni siqib chiqarishi, tijoratlashuv esa qisqa muddatda ko‘rinuvchanlikni oshirib, uzoq muddatda xilma-xillikni kamaytirishi mumkin. Bu xavflarni baholashda hal qiluvchi ovoz jamoaga tegishli [5, 10-tamoyil]. Shu bois modelda qayta tiklash hujjatlashtirish, jamoa ishtiroki va avlodlararo uzatish bilan majburiy bog‘langan, turistik mahsulotga esa faqat autentikligi tasdiqlangan obyektlarni jalb etish maqsadga muvofiq.

Xalqaro ro‘yxat va milliy hujjatlashtirishni farqlash zarur: Reprezentativ ro‘yxat asosan vakillik va ko‘rinuvchanlik, milliy inventar va zudlik bilan muhofaza mexanizmi esa muhofaza vazifasini bajaradi [1, 12-, 16-, 17-moddalar], amalda esa siyosiy e’tibor birinchisiga qaratiladi. Natijada 1991–2025-yillarda shakllangan tizimda xavf ostidagi va amaliyotdan chiqqan elementlar tasodifan emas, tizimli ravishda inventarizatsiyadan tashqarida qolgan:

moddiy meros bo‘yicha keng milliy ro‘yxat (VMQ-846, 2019) tuzilgan davrda gastronomik meros ro‘yxati shakllanmagan (3-jadval). Bu asimmetriya vakolatli meros diskursi bilan izohlanadi [14, B. 11].

Bo‘shliqni to‘ldirish uchun yangi huquqiy institut shart emas: zudlik bilan muhofaza ro‘yxati mavjud [3], qayta tiklash vazifasi belgilangan [2; 4]; yetishmayotgani — metodologiya. Model esa jamoaning o‘z merosini baholash huquqini almashtirmaydi [5, 6-tamoyil]: MQI ekspert bahosi bo‘lib, jamoa tan olishi 8- va 12-mezonlarda hisobga olinadi, yakuniy qaror esa jamoa ishtirokida qabul qilinadi [1, 15-modda].

6. XULOSA

Tadqiqot meros maqomi hosila xususiyat ekanligi haqidagi gipotezani tasdiqladi: manbadagi qayd identifikatsiyaning boshlanish nuqtasi, yakuni emas. Operatsional ta’riflar, mansublik shkalasi, ikki indeksli matritsa, qaror zonalari va algoritmdan iborat apparat aprobatsiyada tafovutlash qobiliyatini, kalibratsiyada esa tashqi asosliligini ko‘rsatdi. Davrlashtirish 2008 va 2024-yillarni hal qiluvchi chegaralar sifatida aniqlab, gastronomik segmentda huquqiy vazifa bilan metodologik ta’minot o‘rtasidagi uzilishni ochib berdi.

Shundan kelib chiqib quyidagilar taklif etiladi: 1) gastronomik merosni 47-son qaror bilan joriy etilgan ro‘yxatlar tizimida alohida yo‘nalish sifatida ajratib, “O‘zbek gastronomik nomoddiy merosi inventari”ni tashkil etish [3]; 2) tarixiy taomlarni hujjatlashtirishning yagona protokolini (manba, mansublik pog‘onasi, MQI, MUI va qaror zonasi majburiy maydon sifatida) tasdiqlash; 3) raqamli gastronomik meros reyestrini 256-son qaror bilan joriy etilgan elektron davlat xizmati infratuzilmasiga ulash; 4) MUIga empirik asos beruvchi, obyektlarning hududiy torayishini o‘lchaydigan gastronomik xarita tuzish; 5) og‘zaki tarix ekspeditsiyalarini birinchi navbatda jonli xotira tashuvchilari tugash arafasida bo‘lgan II zona obyektlari bo‘yicha o‘tkazish; 6) bilim tashuvchilar — mahalliy oshpazlar va oilaviy an’ana saqlovchilari reyestrini yuritib, ularni ekspertiza kengashi ishiga jalb qilish; 7) xavf ostidagi obyektlar monitoringini uch-besh yillik sikl asosida yuritib, natijalarni qayta baholashga qaytarish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiya (Parij, 2003-yil 17-oktabr). – Parij: UNESCO, 2003. URL: https://ich.unesco.org/en/convention

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-405-son qarori. URL: https://lex.uz/docs/-6713096

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2011-yil 23-fevraldagi 47-son qarori. URL: https://lex.uz/docs/-1756739

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2024-yil 29-iyundagi 368-son qarori. URL: https://lex.uz/docs/-6990564

5. UNESCO. Ethical Principles for Safeguarding Intangible Cultural Heritage (Hukumatlararo qo‘mitaning 10.COM 15.a qarori, Vindxuk, 2015). URL: https://ich.unesco.org/en/ethics-and-ich-00866 (murojaat sanasi: 28.09.2026)

6. Сыма Цянь. Исторические записки (Ши цзи). Т. IX / пер. Р. В. Вяткина, А. Р. Вяткина, А. М. Карапетьянца, М. Ю. Ульянова. – М.: Восточная литература, 2010. – 623 с.

7. Al-Muqaddasi. The Best Divisions for Knowledge of the Regions (Ahsan al-Taqasim fi Ma’rifat al-Aqalim) / transl. B. A. Collins. – Reading: Garnet Publishing, 1994.

8. Koshg‘ariy M. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘otit turk) / tarj. S. M. Mutallibov. 1–3-jildlar. – Toshkent: O‘zSSR FA nashriyoti, 1960–1963.

9. Клавихо Р. Г. де. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406). – М.: Наука, 1990.

10. Bobur Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989.

11. Vámbéry A. Travels in Central Asia. – London: John Murray, 1864.

12. Di Giovine M. A., Brulotte R. L. Introduction: Food and foodways as cultural heritage // Edible Identities: Food as Cultural Heritage / ed. by R. L. Brulotte, M. A. Di Giovine. – Farnham: Ashgate, 2014.

13. Hobsbawm E., Ranger T. (eds.). The Invention of Tradition. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.

14. Smith L. Uses of Heritage. – London: Routledge, 2006.

15. UNESCO. Uzbekistan: elements on the Lists of Intangible Cultural Heritage. URL: https://ich.unesco.org/en/state/uzbekistan-UZ (murojaat sanasi: 28.09.2026)